Аслонова Рузафзун Ғиёсиддин қизи

Самарқанд давлат Педагогика Институти

Бошланғич таълим юналиши 2 курс талабаси

UDK 630.26

LALMIKOR YeRLARDA MADANIY O‘RMONLAR BARPO ETISH AGROTEXNIKASI

Q.K. Ashurov

O‘rmon xo‘jaligini rivojlantirish innovatsiya markazi. Bo’lim boshlig‘i

Sh.N. Inomjonov

O‘rmon xo‘jaligi ilmiy tadqiqot instituti ilmiy xodimi

Annotatsiya

Mazkur maqolada lalmikor yerlarda madaniy O‘rmonlar barpo etishning agrotexnik usullari yoritilgan. Tadqiqotda tuproqni tayyorlash, daraxt turlarini tanlash, ekish muddatlari, nam saqlash chora-tadbirlari hamda parvarish ishlarining ilmiy asoslari ko‘rib chiqilgan. Lalmikor hududlarda O‘rmon barpo etish yer resurslaridan oqilona foydalanish, tuproq eroziyasini kamaytirish va ekologik barqarorlikni ta’minlashda muhim ahamiyatga ega ekanligi asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar

lalmikor yerlar, madaniy O‘rmonlar, agrotexnika, tuproq namligi, O‘rmon melioratsiyasi.

Kirish

O‘zbekistonda madaniy O‘rmonlar barpo qilish, ularning maydonini yanada kengaytirish dolzarp vazifa qilib belgilangan. Bugungi kunda iqlim o‘zgarishi, yog‘ingarchilik miqdorining kamayishi va yer degradatsiyasi lalmikor hududlarda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirish samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu sharoitda lalmikor yerlarda madaniy O‘rmonlar barpo etish ekologik va iqtisodiy jihatdan muhim hisoblanadi. Madaniy O‘rmonlar bu-suniy tarzda yaratilgan O‘rmonlardir.O‘zbekistondagi tog‘oldi lalmikor tekisliklarining katta qismi keskin tabiiy-geografik sharoiti tufayli O‘rmonsizdir. Bu maydonni O‘rmonlashtirish muammosini xal etishda madaniy O‘rmonlar yaratishga katta axamiyat berilmoqda. Madaniy O‘rmonlar tuproqni mustahkamlaydi, shamol va suv eroziyasini kamaytiradi, bioxilma-xillikni oshiradi hamda mahalliy aholi uchun qo‘shimcha resurs manbai bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqot ob’yekti va usullari: Tadqiqot ob’yekti sifatida kam yog‘inli, sug‘orish imkoniyati cheklangan lalmikor yerlar tanlandi. Tadqiqotda quyidagi agrotexnik usullar qo‘llanildi:

tuproqni chuqur yumshatish va shudgorlash;

namni saqlashga qaratilgan agrotadbirlar;

mahalliy iqlimga mos daraxt va butalarni tanlash;

ko‘chatlarni qatorlab yoki lentali usulda ekish;

ekishdan keyingi parvarish ishlarini tashkil etish.

Tuproqni tayyorlash: Lalmikor yerlarda O‘rmon barpo etishda tuproqni 35–40 sm chuqurlikda yumshatish muhim ahamiyatga ega. Bu usul yog‘in suvlarining tuproqqa yaxshiroq singishini ta’minlaydi va ildiz tizimining rivojlanishiga sharoit yaratadi. Yaxlit xaydash tuproqning chuqur gorizontlarida namlikni yaxshi joylashuviga yordam beradi, chunki bu yerda tabiiy bug‘lanish past darajada, namlikdan asosan daraxtlarning ildizi foydalanadi. Tuproq yumshoq mayda kesakli xolatga keltirilishi kerak, bu unga namlikni yaxshi singishiga va uni extiyotlik bilan sariflanishiga yordam beradi.

Namni saqlashga qaratilgan agrotadbirlar: Lalmikor yer namligini saqlash va uni begona o‘tlardan tozalashning samarali yo‘li o‘t bosmagan shudgor tizimi bo‘yicha yaxlit xaydashdir. Asosiy xaydash chuqurligi 35-40 sm. Tuproqda namlikni saqlash maqsadida keyingi yilning erta baxorida tuproqqa mola bostirish bilan plug yordamida 20 sm chuqurlida ishlov beriladi. Yozning birinchi yarmida qurg‘oqchilik davri kelguncha kamida ikki marta 12-14 sm chuqurlikda kultivasiya qilinadi. Bu shudgorni begona o‘tlardan tozalashni taьminlaydi. Oktiyabr-noyabr oylarida shudgorni chuqurroq xaydash tavsiya etiladi, bu tuproq uchun qulay tabiiy xususiyatlar yaratadi. Baxorda ekish oldidan xali zichlashmagan tuproq chuqur kultivasiya qilinadi yoki chizellanadi.

Daraxt turlarini tanlash: Madaniy O‘rmonlar uchun qurg‘oqchilikka chidamli daraxt turlari tanlanadi. Ularga saksaul, qarag‘ay, archa, jida, bodom va pista kabi turlar kiradi. Ushbu o‘simliklar kam namlik sharoitida ham yaxshi o‘sish xususiyatiga ega. O‘zbekistonda O‘rmon barpo etishning asosiy uslubi ildiz tizimi yaxshi rivojlangan bir-ikki yillik standart ko‘chatlarni ekish xisoblanadi. Ekish materiali yaxshi tanlangan, birinchi navli, uzunligi 25-30 smli sog‘lom ildiz tizimiga ega bo‘lishi zarur.

Ekish muddati va usuli: Lalmi yerlarda daraxt ekishning eng yaxshi muddati erta baxor – mart oyi va aprel oyining boshi xisoblanadi. Qishki iliq kunlarda ekilgan O‘rmonlar xam yaxshi natija beradi. Kuzgi ekish qish nam bo‘lsa yaxshi natija beradi. Qish quruq kelsa kuzda ekilgan ko‘chatlarda qishki qurish ro‘y beradi, natijada yomon tutadi, qolgan nusxalari esa kasallanadi yoki sekin o‘sadi. Lalmi yerda ko‘chatning ildiz bo‘yinchasi 3-5 sm tuproq ostiga olib ekiladi.

Parvarish ishlari: Ekishdan keyin birinchi 2–3 yil davomida o‘t-o‘lanlarga qarshi kurash, tuproqni yumshatish va muhofaza choralarini ko‘rish zarur. Bu tadbirlar ko‘chatlarning yashovchanligini oshiradi. Madaniy O‘rmonlarni parvarishlash atmasfera yog‘inlari namligini ko‘proq to‘plashga va undan vegetatsiya davri mobaynida oqilona foydalanishga qaratilishi lozim. Buning uchun tuproq yumshatilgan, begona o‘tlardan tozalangan bo‘lishi kerak. Birinchi yili kultivatsiya ko‘proq qilinadi, keyingi yillarda miqdori kamaytiriladi. Yaxshi ishlov berilib, yomg‘ir davri tugagandan so‘ng tuproq ancha paytgacha yumshoq xolatda qoladi. Iyul oyidan birinchi kuzgi yomg‘irgacha (oktyabr – noyabrgacha) yaьni quruq yomg‘irsiz davrda tuproqning qurishi va changlanishidan saqlanish maqsadida qatorlararo tuproqqa ishlov berish tavsiya etilmaydi. Tuproqqa mexanizatsiya yordamida ishlov berishda yumshatish chuqurligi 18-20 sm bo‘ladi. Kuzda qatorlararo chuqur ag‘darmasdan xaydash qishgi-baxorgi davrda namlikni maksimal to‘plashga yordam beradi.



Xulosa

Lalmikor yerlarda madaniy O‘rmonlar barpo etish ilmiy asoslangan agrotexnik tadbirlarni talab etadi. To‘g‘ri tanlangan daraxt turlari, tuproqni sifatli tayyorlash va o‘z vaqtida parvarish ishlarini amalga oshirish orqali yuqori samaraga erishish mumkin. Bu esa ekologik barqarorlikni ta’minlash va yer resurslaridan samarali foydalanishga xizmat qiladi. Lalmikor yerlarda tuproqqa ishlov berish kuzgi xaydash tizimida o‘tkaziladi (tekislik yoki 8 gradusgacha tikkalik yerlardagi yaxlit o‘t bosmagan shudgorlarda). 8 gradusdan yuqori tiklik yerlarda tuproqni tayyorlash tog‘-tog‘oldi zonalariga o‘xshab xaydash yoki o‘yib uyulgan terassalar bo‘yicha amalga oshiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O‘rmon xo‘jaligi va agroo‘rmon melioratsiyasi asoslari. – Toshkent, 2020.

2. Qishloq xo‘jaligi yerlarida O‘rmon barpo etish texnologiyalari. – Samarqand, 2019.

3. Iqlim o‘zgarishi sharoitida lalmikor yerlardan foydalanish. – Toshkent, 2021.

4. S.M.Ablayev. Ya.X.Yuldashov. Madaniy O‘rmonlar. Toshkent- 2008.

5. Xonazarov A.A. O‘zbekistonda O‘rmonzorlar barpo qilish asoslari. T., "O‘rmon-loyiha", 2002 y.

6. Xonazarov A.A., Ergashov S.F., Yuldashov Ya.X. O‘rmon yetishtirish texnologiyasi. Toshkent - «Ilm ziyo», 2005 y.